

Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2025-yil 15-oktabr chorshanba №41(9574)

O'ZBEK MILLATINING TARKIB TOPIHI TARIXIDAN

8-9 -betlar

Sohibqiron bayrog'idagi aylanalar nimani anglatadi?

4 -bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Oxirgi vaqtlarda tuman MMT bo'limlari maktab direktorlariga pensioner pedagoglarga dars bermaslik yoki ishdan bo'shatish majburiyatini yuklash odatini chiqardi. Lekin pensionerlarni bo'shatish yoki dars soatlarini kamaytirish haqida Vazirlar Mahkamasi qarorlari yoki Mehnat kodeksida birona ham band berilmagan!


To'g'ri, harakatchan va talabchan pensionerlar respublika bo'yicha 75% ni tashkil etadi. Qolganlarining darslarini esa tajribali o'qituvchilar kengashi tahlil qilib, xulosani pedkengash yig'ilihi muhokamasiga qo'yishi kerak. Xulosa yomon bo'lsagina pedkengash qarori asosida mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin. Bunday qarorni direktor yoki o'rinbosari shaxsan chiqarishi mumkin emas!

G'ofur DEHQONOV



Toshkent – podshoh
Kaykovus shahri

10 -bet



Tarix takrorlanmasligi
kerak!

12 -bet



Tarix fanini o'qitishda interaktiv
metodlardan foydalanish

6 -bet

Tarixga bag'ishlangan son

Timsol

Temurbek saroyidagi ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo va tarixchi Ibn Arabshoh Sohibqiron tamg'asida bir xil kattalikdagi uch aylananing borligi haqida ma'lumot berishgan. Uch doira shakli Amir Temur davlati bayrog'ida ham aks etgan.

Uch aylananing bu qadar e'zozlanishi, uning davlat ramzi sifatida qo'llanilishi ko'p olimlarni qiziqtirib kelgan va doimo turli munozara va mulohazalarga sabab bo'lgan. Chunki yaxlitlikdagi uch aylana shakli yana bir qancha madaniyatlarda ham uchraydi. Jumladan, qadimgi o'zbek kashtalarida, Xitoydagi Budda ibodatxonasida va buddaviy tug'larda, musavvir Memlingning mashhur suratidagi Iso Masihning ko'ksida, Madonna tasvirida, salibchilarning qalqonlarida, Papa gerbida yaqqol aks etgan. Agar bu belgining barcha tasvirlarini yig'sa, u eng ko'p tarqalgan va eng qadimgi ramzlardan biri sifatida qayd qilinishi aniq. Mingyilliklar osha o'tib kelgan uch aylana belgisi ma'lum bir g'oyaning eng mukammal jihatlari aks ettirgan bo'lsa, o'sha yerda insoniyatning nodir ma'naviy boyliklari yashiringan.



2-rasm. Samarqandning 1910-yildagi gerbi.

va guruhlarining qiziqishlariga taalluqli emas, chunki u ong evolyutsiyasining barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi".

Bu Rerixning so'zi. Biroq yer yuzidagi eng ulug' xoqonlar ichida faqat Amir Temur sharqiy yarimsharning, uch qit'a – Yevropa, Osiyo va Afrikaning to'la huquqli hukmdori bo'lgan, uch qit'aga egalik ruhi uning tamg'asida va tug'larida aks etgan.

1929-yili Amir Temur tamg'asi Rerix tashabbusi bilan Madaniyat Pakti ramziga aylantirildi. Ayni vaqtda mazkur belgi Rossiya va Tovar belgilari agentligining rasmiy belgisi sifatida patentlangan bo'lib, u insoniyat

aylananing mazmunini aniqlashga qaratilgan o'zining umumiy tadqiqotiga kiritadi. Rerix o'z izlanishlariga xulosa yasar ekan, tamg'a dunyoning ramzi ekanligini qayd qilib o'tadi: "Mazkur belgi juda qadimgi bo'lib, ochuning barcha yerlarida uchraydi, shu sababli u ma'lum bir mazhab, tashkilot, din yoki an'ana, shuningdek, shaxs

Mutaxassis minbari

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimidagi yuksalish jarayonlari globallashuv va raqamli transformatsiya ta'sirida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, tarix fanlarini o'qitishda samarali metodikalar yaratish va amaliyotga joriy etish xalqaro miqyosda dolzarb masalalardan biriga aylangan. AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Avstraliya, Germaniya kabi ilg'or davlatlar tajribasi tarix ta'limini innovatsion usullar orqali boyitmoqda. Bunday vositalar yordamida o'quvchilarga tarixiy voqealarni jonliroq, ta'sirchanroq yetkazish hamda jarayonlarni chuqurroq tushuntirish imkoni yaratilmoqda.


O'zbekistonda mustaqillik davrida ta'lim sohasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda tarix fanlarini o'qitish sifatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"da O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish vazifasi belgilandi. Bu tarix ta'limini uzviylik, izchillik va xolislik tamoyillari asosida takomillashtirish hamda yangi metodik tizim yaratishni talab etadi. Shuningdek, 2019–2023-yillarda qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvga o'tish va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Demak, mamlakatimizda milliy qadriyatlar va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim sifatini oshirish ustida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Tarix fanlarini klaster tizimi doirasida, ya'ni turli ta'lim muassasalari hamkorligi va integratsiyasida o'qitish tashabbusi ham aynan shu islohotlar kontekstida dolzarbdir.

Klaster tizimi – ta'lim muassasalari, ilmiy va amaliy markazlar hamda boshqa manfaatdor subyektlarni yagona tarmoq sifatida birlashtiruvchi yondashuvdir. Klaster yondashuvi ta'lim jarayoniga yangi sinergetik sifat baxsh etadi. U orqali ta'lim sifati, ijtimoiy va hatto iqtisodiy samaradorlik oshadi. Klaster tizimida asosiy tamoyillardan biri bu umumiy manfaat va maqsadlar asosida ishtirokchi muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Masalan, maktab, litsey va oliy ta'lim muassasalari o'zaro axborot almashuvi, metodik ko'mak va tajriba almashinuvi orqali birgalikda ishlasa, tarix ta'limida uzviylik va uzluksizlik ta'minlanadi. Ochiq ta'lim muhitida yagona elektron platforma yoki axborot maydoni tashkil etilib, klasterga kiruvchi subyektlar o'rtasida tezkor aloqa o'rnatilishi mumkin. Bu masofaviy va interaktiv hamkorlikni kuchaytiradi. Klaster tizimi, aslida, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini bir-biriga bog'laydi va resurslarni samarali taqsimlashga imkon yaratadi.

Integrativ ta'lim esa tarix fanini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitish deganidir. Bunda o'quvchilar tarixni geografiya, adabiyot, san'at, hatto tabiiy fanlar kontekstida ham o'rganadi, natijada bilimlar yanada chuqurroq va hayotiyroq bo'ladi. Masalan, qadimgi sivilizatsiyalarni o'rganishda geografik sharoitlarni hisobga olish yoki tarixiy voqealarni adabiy asarlar orqali tasavvur qilish integrativ yondashuv ko'rinishlaridir. Integrativ yondashuv o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantiradi, chunki ular turli manbalar va fanlar chorrahasida bilim oladi.

Klaster asosidagi integrativ ta'lim modelida tarix ta'limini rivojlantirish uchun gorizontal va vertikal integratsiya ta'minlanadi. Gorizontal integratsiya deganda ta'lim klasteri tarkibidagi turli muassasalar(maktab, litsey, oliy o'quv yurti va ilmiy markazlar) o'rtasidagi hamkorlik tushuniladi. Ular o'quv-uslubiy materiallarni baham ko'rish, o'qituvchilar malakasini oshirish va

Sohibqiron bayrog'idagi aylanalar nimani anglatadi?



1-rasm. Sohibqiron Amir Temurning uch aylanadan iborat belgisi.

Klavixo bu tamg'ani shunday tushuntiradi: "Sohibqiron tamg'asi – uch aylana. Bundan Amir Temur ochun uch tomonining xoqoni ekanligini anglash mumkin. U bu tamg'ani barcha tangalarda va narsalarda ko'rsatishni buyurdi. "O" harfiga o'xshash bu uch aylana hukmdor muhrida ham mavjud, u o'ziga tobe ellarning pullariga ham bu uch halqa suratini tushirishni buyurdi". Temurshunos Xilda Xuksem Amir Temur tamg'asidagi uch aylana baxtli uch sayyora egasi, ya'ni sohibqironlik belgisi ekanligini yozadi.

Sohibqironidan keyin besh asr o'tgach, Rossiya imperiyasi mutaxassislari Samarqand ramzi tasvirini tasdiqlash arafasida Amir Temur tamg'asiga e'tibor berib, belgini Samarqand gerbiga kiritadi. Qalqon o'rtasida to'liqlik ustun ikki tarafi tut yog'ochining oltin novdalari bilan bezatilgan. Qalqonning kumush tus manglayida Amir Temurning tamg'asi – uch qora aylana tasviri tushirilgan. Qalqon ustiga ko'hna toj kiydirilgan bo'lib, atrofi eman yog'ochining tillarang shoxlari bilan o'ralgan.

Samarqand gerbida muhrlangan uch aylanani ko'rib qolgan mashhur faylasuf va musavvir N.K.Rerix ko'plab madaniyatlar va odatlarda aks etgan uch

madaniy boyliklarini himoya qilish rasmiy ramzi sifatida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Dunyo xaritasiga qaralsa, ulkan Afro-Yevro-Osiyo qoq markazida, ikki azim daryo – qadimgi O'kuz(Amu) va Inju(Sir) orasida hozirgi O'zbekiston joy olgan. X asrda Beruniy, keyinchalik Mirzo Ulug'bek bu joy yerning qoq o'rtasi, Buyuk Ipak yo'lining jannati ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Sohibqiron tamg'asidagi uch aylana mazmunini quyidagicha izohlasak to'g'ri bo'ladi: bobomiz Temurbek Yer yuzining markazi, barcha yo'llarning oltin kesishmasi – Samarqand bo'lgan uch qit'a hukmdorligiga intilgan va bunga erishgan. Agar o'tmishda barcha yo'llar Rimga yoki Parijga olib boradi deyishsa, hozir hech ikkilanmay barcha yo'llar Samarqandga, Toshkentga yoki ular orqali jahonning boshqa joylariga olib boradi, deyish mumkin. Chunki yurtimiz yana yangilanayotgan Buyuk Ipak yo'lining asosiy magistrali o'tgan, uch qit'a yo'llari, aloqalari tutashdigan markazga aylanib bormoqda.

Erkin MUSURMONOV,
filologiya fanlari doktori,
Samarqand davlat chet tillar instituti
"Qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasini mudiri

Tarix ta'limida klaster usuli

innovatsion metodlarni birgalikda sinab ko'rish kabi yo'nalishlarda ish olib boradi. Vertikal integratsiya esa tarix ta'limi mazmuni va metodikasini bosqichma-bosqich(boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim) uzviyligida takomillashtirishni anglatadi. Mazkur model doirasida davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari modifikatsiya qilinib, ularga zamonaviy, kompetensiyaga yo'naltirilgan maqsad va vazifalar integratsiya qilinadi. Shuningdek, metodologik asoslar yangilanadi va amaliyotga joriy qilinadi. Natijada klaster sharoitida shakllangan ochiq ta'lim muhiti va yangilangan integrativ metodika tarix fanlarini o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Olib borgan tadqiqotimiz "tarix fanlarini klaster tizimida integrativ o'qitishning modifikatsion metodikasi" sifatida keng jamoatchilikka taqdim qilingan bo'lib, bunda klasterli hamkorlikka tayangan va turli fanlar integratsiyasini ko'zda tutgan yangilangan tarix o'qitish uslubiyoti tushuniladi. Bu metodika xorijiy tajribalar va xalqaro talablarga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan. Unda uzluksiz ta'lim tizimining barcha pog'onalarida tarixiy bilimlarni izchil va tizimli o'qitish modeli taklif etiladi. Modifikatsion metodika doirasida tarix darslarida interaktiv va innovatsion usullar majmuasi, raqamli texnologiyalar, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanadi. Masalan, o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirish uchun virtual muzeylardan foydalanish, tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish uchun o'yinga asoslangan elementlarni joriy etish, guruhlarda muammoli topshiriqlar orqali tarixiy tafakkurni charxlash kabi usullar integrativ metodikaning tarkibiy qismlaridir.

Umuman olganda, klaster tizimida integrativ ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan va faol metodlarga tayangan bo'ladi. O'quvchi tarixni yodlash obyekti sifatida emas, balki mustaqil tadqiqot va tahlil qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. O'qituvchi esa faqat bilim beruvchi emas, balki klaster doirasida fasilitator, ya'ni yo'naltiruvchi va koordinator rolini bajaradi. Bu yondashuv natijasida o'quvchilarda nafaqat tarixiy faktlar haqidagi bilim, balki ularni tahlil qilish, bugungi kun bilan bog'lash va xulosalar chiqarish kabi hayotiy ko'nikmalar shakllanadi.

Davlatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va qarorlar ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlarini xalqaro talablar darajasida yangilash va kadrlar malakasini oshirishni ko'zda tutadi. Jumladan, Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida hamda ta'lim-tarbiya va ilm-fanni rivojlantirishga oid farmonda ta'lim mazmunini yangilash hamda kompetensiyaviy yondashuvga o'tish ustuvorligi belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida esa tarix fanini o'qitishga alohida urg'u berilgan. Shu bilan birga, maktab ta'limidan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda uzluksiz tarix ta'limi konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Klaster tizimi va integrativ ta'lim yondashuvi aynan shu islohotlar ruhiga mos keladi. Chunki klasterli tizimda ta'lim sifati oshadi, resurslar birlashadi, hududiy va tizimlararo tafovutlar kamayadi. O'zbekiston sharoitida, masalan, bir hududdagi maktab, pedagogika kolleji va universitetni "tarix ta'limi klasteri"ga birlashtirish orqali o'quv dasturlarini uzviy bog'lash, iqtidorli talabalarni erta aniqlab, ularni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, malakali o'qituvchilar tajribasini umumlashtirish mumkin bo'ladi. Ta'lim klasterini takomillashtirish jarayonida zamonaviy innovatsion faoliyat, axborot muhiti(masalan, yagona elektron platforma) va integrativ usullar joriy etilishi orqali ta'lim jarayonining inklyuzivligi va samaradorligi oshadi.

Qayd etilganidek, davlat ta'lim standartlarini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim ja-



rayonini kompetensiyaviy modelga o'tkazish hozirgi islohotlarning mazmunini tashkil etadi. Tarix fanlarini klaster asosida integrativ o'qitish esa aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. O'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish(tanqidiy tafakkur, muloqot, axborot bilan ishlash va boshqalar) hamda o'quv dasturlarini milliy va jahon tajribasi bilan boyitishga yordam beradi. Milliy o'quv dasturlari va darsliklarga so'nggi yillarda kiritilgan o'zgartirishlar ham integratsiyalashgan yondashuvga mos ravishda olib borilmoqda. Misol uchun, umumta'lim maktablarida "Tabiiy fanlar" integratsiyalashgan kursining joriy etilishi(1–6-sinflarda turli tabiiy fanlarni birlashtirib o'qitish) bu fanlararo integratsiya tamoyilining amaldagi namunasi bo'lib, o'quvchilar ongida olamning yaxlit manzarasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xuddi shunday, tarix fanini ham ijtimoiy fanlar klasteri doirasida integrativ o'qitish orqali o'quvchilarga jamiyat va sivilizatsiyalar to'g'risida yaxlit tushuncha berish mumkin. Bu borada "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun loyihasi ustida ish olib borilayotganini ham ta'kidlash o'rinli.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida integrativ yondashuv va klasterlash tushunchalari tobora keng qo'llanilmoqda. Masalan, AQSHda Massachusetts texnologiya institutining (MIT) Ta'lim tadqiqotlari laboratoriyasi zamonaviy ta'lim metodologiyalari bo'yicha olib borayotgan izlanishlar tarix fanlarini innovatsion asosda o'qitishni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, MIT mutaxassislari ta'lim jarayonida o'yin elementlari, virtual haqiqat va sun'iy intellektidan foydalanish orqali o'quvchilarni tarixiy tadqiqotlarga jalb etish g'oyalarini ishlab chiqishgan. Buyuk Britaniyada esa London universiteti qoshidagi Xalqaro tarixiy tadqiqotlar va ta'lim markazi tarix ta'limining global rivojlanishiga hissa qo'shmoqda – bu markaz turli davlatlar ta'lim tizimidagi tarix o'qitish amaliyotini solishtirib, eng yaxshi yondashuvlarni aniqlash va targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Britaniya maktablarida tarix fanini o'qitishda ko'proq tanqidiy tahlilga urg'u berilib, o'quvchilarga bir xil voqeani turli manbalardan o'rganish va taqqoslash ko'nikmasi singdirilayotgani diqqatga sazovor. Singapur ta'lim tizimi yuqori reytinglarda turishi sir emas. Bu mamlakatda o'quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish va XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Singapur tarix ta'limida ham integrativ yondashuvni qo'llab, darslarda case-study (anjumanlar tahlili), rol o'ynash(simulyatsiya) kabi usullar keng tatbiq etilmoqda. Natijada o'quvchilar tarixiy voqealarni oddiy yod olayotgan faktlar majmuyi emas, balki hayotiy saboqlar sifatida qabul qilishga o'rganyapti. Finlandiya maktablarida esa "fenomenga asoslangan ta'lim" tamoyili joriy etilgan bo'lib, o'quvchilar alohida fanlarni emas, balki mavzularni keng qamrovda o'rganadi. Masalan, "O'rta asrlar davri" mavzusini tarix, geografiya, san'at va adabiyot fanlari kesishmasida o'zlashtiradilar. Bu usul

ham o'z mohiyatiga ko'ra fanlararo integrativ yondashuv bo'lib, tarixiy bilimlarning mustahkam va chuqur bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar tarix ta'limini takomillashtirishda klaster yondashuvini muhim vosita sifatida tan olgan. Singapur Milliy universiteti, Xelsinki universiteti(Finlandiya), Vena texnologiya universiteti (Avstriya), Garvard universiteti(AQSH), Kembrij universiteti(Britaniya) kabi nufuzli maskanlarda tarixni o'qitishda fanlararo integratsiya va ta'lim klasterlari orqali samaradorlikka erishish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ilmiy izlanishlar

natijasida, masalan, tarix fanini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish(3D tarixiy rekonstruksiyalar, virtual muzeylar), ijtimoiy-gumanitar fanlarni bir platformada integratsiya qilish kabi qiziqarli tashabbuslar paydo bo'lmoqda. Avstraliyada ham tarix o'qitishda loyiha faoliyati va jamoa bo'lib o'rganishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilar tarixiy mavzularda kichik tadqiqot loyihalarini amalga oshirib, natijalarni sinfdoshlariga taqdim etadi. Germaniya tajribasida esa "Tarixiy ongni shakllantirish" konsepsiyasi diqqatga sazovor, unda o'quvchilarga nafaqat Germaniya, balki jahon tarixi kontekstida xalqaro hamjihatlik g'oyalari singdiriladi, ya'ni tarixiy bilim tarbiya vositasi sifatida ham qaraladi.

Aytish joizki, har bir mamlakat tarixni o'qitishda o'ziga xos yondashuvlarga ega, lekin ularni umumlashtirgan holda ko'rish mumkinki, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va integratsiya bugungi dunyo tarix ta'limining asosiy trendlaridir. O'zbekiston ham aynan shu yo'nalishlarda o'z ta'lim tizimini rivojlantirmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida bir qator istiqbolli yechimlar taklif qilindi. Jumladan, tarix ta'limi bo'yicha maxsus ta'lim klasterlarini har bir hududda shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun me'yoriy baza yaratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday klasterlar doirasida tarix faniga ixtisoslashgan maktablar(yoki sinflar) bilan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi lozim. "Ustoz-shogird" an'analarini davom ettirgan holda, tajribali o'qituvchilar va olimlar maktablarda mahorat darslari o'tishi, yoshlarga ilmiy maslahatlar berishi mumkin. Raqamli platforma yaratilib, unga klasterga kiruvchi barcha ta'lim muassasalari ulanadi, platforma orqali metodik materiallar, elektron darsliklar, tarixiy ma'lumotlar bazasi, virtual muzey va kutubxonalar birgalikda yuritilishi taklif qilindi. Bu esa, birinchidan, ta'lim resurslaridan umumiy foydalanish imkonini bersa, ikkinchidan, shahardagi va olis hududlardagi maktablar o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi.

Tadqiqot yakuniy xulosalariga ko'ra, integrativ va klaster yondashuvlarini tarix ta'limiga joriy etish orqali tarix fanlarini o'qitishda an'anaviy yodlashga asoslangan usullar o'rni faol, innovatsion usullar egallashiga, ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirib, o'quvchilar tarixni boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish orqali keng dunyoqarashga ega bo'lishiga erishiladi. Shuningdek, raqamli va interaktiv texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi, bu esa ta'limni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim klasterlari doirasidagi hamkorlik tufayli o'qituvchilarning kasbiy mahorati uzluksiz oshib boradi, ilmiy-pedagogik salohiyat yuksaladi. Eng muhimi, tarix fanlariga qiziquvchi, tanqidiy tafakkurga ega, milliy va umumbashariy qadriyatlarini qadrlaydigan yangi avlod shakllanadi.

Saodat TOSHTEMIROVA,
CHDPU dotsenti

Metodik tavsiya

TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, tarix fani mavzularida atamalar ko'p uchraydi va bu o'quvchilarga mavzuni o'rganishda muammo tug'diradi. Bu jarayonda ularga lug'at daftarlari yuritishdan tashqari ba'zi texnologiyalar asqatadi.

“Qayerda? Nima? Qanday?” metodi


O'quvchilar atamalarini o'rganish barobarida uning qaysi davlatda ishlatilishini ham bilib oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning tarixiy atamalarini qanchalik yodda saqlab qolganini aniqlashtiradi. Bu metod xotirada saqlash qobiliyatini yanada oshiradi.

Maqsad: tarix darslarida eng ko'p uchraydigan tarixiy atamalarining ta'rifini to'g'ri, aniq va tez bayon eta olish.

Qo'llanishi:

Tarix darslarining har qanday bosqichi(o'tilgan mavzu, yangi mavzu, umumlashtirish, takrorlash va fan doirasidagi to'garaklar)da qo'llash mumkin.

Birinchi o'quvchi atama izohini topadi. Ikkinchisi esa qaysi davlatda ishlatilganini topadi va grafiklar-ni mos javoblar bilan to'ldiradi. Buni ikki guruhga bo'linib ham bajarish mumkin.



1. Seysmograf.
2. Satrap.
3. Sanskrit.
- A. Qadimiy hind yozuvi.
B. “Viloyat” ma’nosini anglatuvchi so‘z.
D. Zilzilalarni oldindan aniqlovchi asbob.



Javobi:

1	1	D
2	3	A
3	2	B

Sofokl	Tragediya	“Iliada”
Teatr	Komediya	“Odisseya”
Gomer	“Shoh Edip”	“Antigona”

Ushbu metodda avval atamalar va yangi so'zlar mazmuni tushuntiriladi, so'ngra ushbu so'zlardan foydalanib gaplar tuzilishi kerak. Quyidagi atamalar 6-sinf darsligining “Qadimgi Yunoniston” mavzusidan olingan. Bunda o'quvchi atamalar mazmunini bilish bilan

birga, jumla tuzish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.

2-jadval javobi:

Sofokl	“Shoh Edip”	“Antigona”
Gomer	“Iliada”	“Odisseya”
Teatr	Komediya	Tragediya

Demak, ushbu so'zlardan shunday gap tuzsak bo'ladi: qadimiy yunon shoiri Gomer “Iliada” va “Odisseya” poemalarini yozgan.

3-jadval:

Poseydon	Afina	Gelios
Aid	Gefest	Apollon
Demetra	Zevs	Ares

Bu metodda yunon xudolarining ismlari berilgan. Bu ismlarni xudolarning o'ziga xos jihati, ya'ni turli ishlarga homiyligini ifodalovchi rasmlarga moslashtirib chiqish kerak. Rasmlar orqali mavzu yaxshi yodda qoladi. Mazkur metodni yangi mavzuni tushuntirish, takrorlash qismida, to'garak mashg'ulotlarida qo'llash mumkin.



- 1-rasm. Demetra – dehqonchilik va hosildorlik ilohasi.
2-rasm. Afina – donishmandlik ilohasi.
3-rasm. Apollon – Zevsning o'g'li, musiqa va she'riyat xudosi.
4-rasm. Gelios – Quyosh xudosi.
5-rasm. Gefest – temirchilik xudosi.
6-rasm. Poseydon – dengiz xudosi.
7-rasm. Ares – urush xudosi.
8-rasm. Zevs – chaqmoq va osmon xudosi, xudolar rahnamosi.

TARIX FANINI BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIKDA O'RGANISH

“Rasmi jumboq” metodi

Bu texnologiyada mashhur tarixiy shaxslarning so'zlari rasmlar orqali yashirib berilgan. O'quvchi bu rasmlardan jumla ma'nosini chuqurroq o'rganadi, mavzuni yodda saqlashi osonlashadi, rasmdagi predmet haqidagi tasavvuri ham takomillashadi.



Topshiriq. Rasmda yashiringan so'zni toping!

Javob: Jaloliddin Manguberding jasoratiga tan bergan tarixchilar uning ayanchli o'limini shunday baholaydi: “Yo'lbars changalidan omon chiqqan arslon chiyabo'ri qo'lida jon berdi”. Ya'ni Chingizxonga bas kelgan Jaloliddin kam sonli xalq – kurdlar qo'lida jon bergani aytiladi. Yo'lbars – Chingizxon, Arslon – Jaloliddin Manguberdi, Chiyabo'ri – kurdlar.

“Sonlar tilga kirganda” metodi

Mazkur metod tarixiy raqamlarni qulay yodda saqlashga yordam beradi.

1-usul. 9 + 1 = 10.

Javobi: Bu sonlar ortida sohibqiron Amir Temurning ushbu jumlasini yashiringan: “Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan bajo keltirdim”.

2-usul. 1) 52,5 2) 147 3) 2,5 4) 20
5) 70 6) 750 7) 6

Ushbu usul 6-sinf Tarix darsligidagi “Qadimgi Misr” mavzusi asosida tuzilgan. Demak, bu raqamlar nimani anglatishini aniqlashimiz kerak. Raqamlar javobini rasmlarda ifodalasa ham bo'ladi. Masalan, 1) 52,5 cm – podshoh tirsagi uzunligi, ya'ni Misrda o'lchov birligi hisoblangan.

Javoblar:

- ✓ 2) 147 metr – Misrdagi Xeops piramidasi uzunligi hisoblanadi.
✓ 3) 2,5 tonna – piramidalarga qo'yilgan toshlar eng kichigining og'irligi.
✓ 4) 20 metr – Sfinksning balandligi.
✓ 5) 70 kun – Misr podshohlarini mo'miyolash jarayonining davomiyligi.
✓ 6) 750 ta belgi – Misr iyerogliflari(yozuvi)ning soni.
✓ 7) 6 ming km – Nil daryosining uzunligi.

Bu metod sonlarni qo'llash orqali ularni yodda saqlash qobiliyatini oshiradi. Buni takrorlash darslarida, zakovat o'yinlarida qo'llash mumkin.

“Davlatni toping!” metodi

O'quvchilar o'qituvchi tomonidan ijoy qilingan she'riy topishmoq javobini topib xaritadan ko'rsatishlari kerak. Bunda 2 ta amal bajariladi:

1-qadam. She'riy topishmoqdagi davlatni topish.

2-qadam. She'rda ifodalangan davlatni xaritadan ko'rsatish.

Har bir davlatning o'ziga xosligi mavjud. Bunday she'riy topishmoqlar orqali nafaqat xaritaning yaxshi o'rganish, balki ushbu davlatlarni ochib beruvchi elementlarni ham xotirada saqlab qolish imkonini tug'iladi. (Quyidagi she'rlarni o'zim yozganman).

She'rlar pdf ekan, matn pastda terildi, bulardan rasmini qirqib olamiz.





Iftixor

Samarqand — tarix va maʼrifat maskani

Samarqand – nafaqat shahar, balki butun sivilizatsiyalar chorrahasida shakllangan maʼnaviyat oʻchogʻi. Uning ildizlari miloddan avvalgi VIII–VII asrlarga borib taqaladi. Qadimda Soʻgʻdiyona deb atalgan bu hudud Sharq va Gʻarb yoʻllari kesishgan muhim markaz boʻlib, savdo, madaniyat va ilm-fan rivojiga xizmat qilgan. Karvonlar Samarqand orqali oʻtib, faqat ipak va ziravor emas, balki gʻoya, ilm va maʼrifatni ham olib kelgan. Shu bois ham Samarqand qadimdan “Sharq yuragi” sifatida tanilgan.

Antik davr mualliflari Samarqandni “Smarakanda” deb atab, afsonaviy boyliklari va goʻzalligi bilan tilga olgan. Plutarx shaharni “Sharqdagi eng boy va mustahkam qalʼalardan biri” sifatida taʼriflaydi. Arrian esa Iskandarning Samarqand devorlari ostida kuchli qarshilikka duch kelganini qayd etadi. Kvint Kursiy Ruf uni “Soʻgʻd diyorining yuragi” deb bejiz atamagan. Haqiqatan ham Samarqand shunchaki shahar emas, balki butun mintaqaning ruhi va maʼnaviy markazi edi.

Samarqand tarixida Iskandar Zulqarnaynning oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi. Unga oid talqinlar faqat jang yoki zabt etish bilan cheklanib qolmaydi. Sharq adabiyotida Iskandar – adolatli hukmdor, ilm va maʼrifat homiysi sifatida gavdalanadi. Nizomiy Ganjaviy oʻzining mashhur “Sharafnoma”sida shunday yozadi:

*Koʻrki jahon koʻp mulklar oldi,
Ammo qalbni zabt ayladi ilm bilan.*

Bu misralar Iskandar siymosini zabtkor emas, balki ilmparvar shoh sifatida koʻrsatadi. Abdurahmon Jomiy ham “Xiradnomayi Iskandariy” asarida uni Samarqandda donishmandlar bilan maslahatlashib, ilmiy-maʼnaviy hayotni yuksaltirishga intilgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Demak, Iskandarning Samarqanddagi faoliyati zamonaviy tilda aytganda, “madaniy uygʻonish loyihasi” edi.

Alisher Navoiy bu anʼanani davom ettirib, “Saddi Iskandariy” dostonida uni maʼnaviy hukmdor sifatida madh etadi:

*Ani donish ahli anga tobut oturdi,
Koʻngul mulkida ul hukmronlik tutdi.*

Navoiyning bu talqini Samarqandni ilm va maʼrifat markazi sifatida koʻrsatadi.

Asrlar oʻtib, Samarqand Amir Temur davrida ikkinchi bor uygʻonish davrini boshdan kechirdi. Moʻgʻullar istilosidan keyingi tanazzuldan soʻng Sohibqiron bu shaharni oʻz poytaxtiga aylantirdi va yangi hayot baxsh etdi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida Amir Temur Samarqandni dunyodagi eng goʻzal va obod shahar qilishga bel bogʻlaganini yozadi. Ibn Arabshoh esa uni “Temurning qalbidagi orzu shahri” deb ataydi.

Temurbek davrida Samarqandga dunyoning turli burchaklaridan olimlar, meʼmorlar, shoirlar va sanʼatkorlar yigʻildi. Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Goʻri Amir maqbarasi kabi buyuk obidalar bunyod etildi. Minoralar, gumbazlar va madrasalar qad rostlab, shaharning qiyofasini oʻzgartirdi. Bu davrda Samarqand haqiqiy “Sharq Renessansi” markaziga aylandi.

Har ikki buyuk shaxs – Iskandar va Amir Temur Samarqandni nafaqat siyosiy markaz, balki maʼrifat, ilm, adolat va uygʻonish timsoli sifatida koʻrdi. Shu bois Samarqand obrazi adabiyot va sanʼatda asrlar davomida donishmandlik, goʻzallik va obodlik ramzi boʻlib kelmoqda.

Bugun ham Samarqand oʻzining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va betakror meʼmorchiligi bilan dunyoni hayratga solmoqda. Samarqandga tashrif buyurgan har bir kishi bu yerda tarix nafasini, buyuk hukmdorlar orzulari va madaniyat nurlarini his qiladi.

Ammo Samarqand faqat oʻtmish xotirasi emas. U – kelajak sari intilayotgan zamonaviy shahar. Mustaqillik yillarida bu qadimiy maskan nafaqat saqlab qolindi, balki yangi qiyofa kasb etdi. 2001-yili Samarqandning



tarixiy markazi UNESCOning Butunjahon madaniy merosi roʻyxatiga kiritildi. Bu xalqaro eʼtirof Samarqandning dunyo sivilizatsiyasidagi oʻrnini yanada mustahkamladi.

Bugun Samarqandda qadimiy obidalarga yonma-yan zamonaviy inshootlar qad rostlamoqda. Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Goʻri Amir va Bibixonim masjidi singari tarixiy durdonalar qatorida zamonaviy mehmonxonalar, kongress markazlari, ilmiy maskanlar barpo etildi. 2022-yili Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammiti aynan Samarqandda oʻtkazilgani bejiz emas – bu, avvalo, shaharning xalqaro siyosiy va diplomatik markaz sifatidagi nufuzidan dalolat beradi. Shuningdek, Samarqandda yangi “Ipak yoʻli” turizm markazi, xalqaro aeroport va zamonaviy transport infratuzilmasi barpo etildi. Bu esa uni jahon miqyosidagi sayyohlik markaziga aylantirish yoʻlidagi muhim qadamdir. Bugungi kunda Samarqand nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyo turizmining yuragi boʻlib bormoqda.

Samarqand qadimdan ilm ahli maskani boʻlgan. Ulugʻbek rasadxonasi oʻz davrida butun dunyoga mashhur ilmiy markazga aylangani kabi bugun ham shahar ilmiy salohiyatini oshirmoqda. Samarqand davlat universiteti, xalqaro ilmiy markazlar va zamonaviy taʼlim muassasalari ilm-fan rivojida muhim rol oʻynamoqda. Bu esa uning yangi davrda ham maʼrifat maskani sifatidagi mavqeyini mustahkamlab bormoqda.

Har bir davr Samarqandga yangi qiyofa, yangi ruh baxsh etdi. Iskandar davrida – ilm va adolat, Amir Temur davrida – buyuk uygʻonish, mustaqillik yillarida esa jahon bilan hamnafaslik ruhi. Bugun Samarqand butun dunyo uchun ochiq, xalqaro forumlar, madaniy festival va ilmiy anjumanlar maskani hamda oʻtmish va kelajakni bogʻlaydigan koʻprikdir.

Iroda PARDAYEVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti
dotsenti



Suratlar muallifi: Muhammadbobur Mahmarayimov.

Marifat

TAʼSIS ETUVCHILAR:

Oʻzbekiston maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi,
Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6018. Tiraji 6117.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qogʻoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



“Maʼrifat”dan
materiallarni koʻchirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qoʻlyozmalar taqриз
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent koʻchasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy koʻchasi, 30-uy.